2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 373.3:37.091.26

Xamidova Diyora Rustam qizi,
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati tahlil qilingan. Xalqaro baholash tadqiqotlari, xususan, PIRLS va PISA dasturlarining o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashish hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar topshiriqlarining kognitiv murakkablik darajalari, matn, grafik va jadvallar bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Maqolada xalqaro baholash natijalaridan foydalanish orqali milliy ta’lim metodlarini takomillashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida oshirish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, PISA, ijodiy faoliyat, o‘qish savodxonligi, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, kompetensiya, xalqaro baholash, ta’lim sifati.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНИВАНИЯ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируется значение международных программ оценивания в развитии творческой деятельности учащихся начальных классов. Рассматриваются возможности международных исследований, в частности программ PIRLS и PISA, в формировании читательской грамотности, критического и творческого мышления, способности самостоятельно находить решения проблемных ситуаций и применять знания в жизненных условиях. Особое внимание уделяется заданиям международных исследований, их когнитивной сложности, а также развитию у учащихся навыков работы с текстовой, графической и табличной информацией. Раскрывается роль международных оценочных исследований в совершенствовании национальных методов обучения и повышении качества начального образования. На основе анализа содержания международных

программ обосновывается необходимость интеграции современных подходов к развитию читательской грамотности и творческого мышления в образовательный процесс.

Ключевые слова: начальное образование, международные программы оценивания, PIRLS, PISA, творческая деятельность, читательская грамотность, творческое мышление, критическое мышление, компетентность, качество образования, международное оценивание

THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMMES IN DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the importance of international assessment programmes in developing students' creative activity in primary education. It examines the potential of international assessment studies, particularly PIRLS and PISA, in developing reading literacy, critical and creative thinking, independent problem-solving skills, and the ability to apply knowledge in real-life situations. Particular attention is paid to the cognitive complexity of international assessment tasks and their role in developing students' skills in working with textual, graphical, and tabular information. The article also highlights the role of international assessment results in improving national teaching methods and enhancing the quality of primary education. Based on the analysis of international assessment programmes, the study emphasizes the need to integrate modern approaches to reading literacy and creative thinking into the educational process.

Keywords: primary education, international assessment programmes, PIRLS, PISA, creative activity, reading literacy, creative thinking, critical thinking, competence, quality of education, international assessment.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, axborotni tahlil qilish, ijodiy yondashish va egallangan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchini tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki bilimni izlab topadigan, tahlil qiladigan, yangi g'oyalar ilgari suradigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

O'zbekistonda ham ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslash hamda mavjud ta'lim metodlarini takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarorida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga

tayyorgarlik ko‘rish, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos metodik qo‘llanmalar va o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga doir vazifalar belgilangan [1].

Xalqaro baholash dasturlarining muhim jihati shundaki, ularda o‘quvchining faqat ma’lum bir mavzu bo‘yicha egallagan bilimlari emas, balki ushbu bilimlardan turli hayotiy vaziyatlarda foydalana olish qobiliyati ham baholanadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchini ma’lumotni yodlashdan ko‘ra uni anglash, tahlil qilish, taqqoslash, baholash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi. Natijada ta’lim jarayonida yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoit yuzaga keladi.

Boshlang‘ich ta’lim ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish, o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash, savol berish, kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi asosiy kompetensiyalari shakllanadi. O‘quvchining matnni o‘qiy olishi bilan bir qatorda, uning mazmunini tushunishi, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlashi, matndagi g‘oyani aniqlashi hamda o‘z munosabatini bildira olishi keyingi ta’lim bosqichlari uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS dasturi boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash bilan birga, ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirish uchun ham muhim metodik manba bo‘la oladi.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining, xususan, PIRLS dasturining imkoniyatlarini tahlil qilish hamda xalqaro baholash talablariga mos topshiriqlardan foydalanishning pedagogik ahamiyatini asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, o‘quvchilarning ta’lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash va milliy ta’lim tizimining kuchli hamda takomillashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini xalqaro miqyosda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlardan biridir. Mazkur tadqiqot o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish, undagi ma’lumotlarni aniqlash, mazmunni talqin qilish hamda o‘qilgan material asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot materiallarida PIRLS dasturining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Boshlang‘ich ta’limda o‘qib tushunish savodxonligi keyinchalik shakllanadigan tabiiy-ilmiy, matematik, moliyaviy va boshqa savodxonlik turlarining rivojlanishi uchun muhim asos sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro baholash dasturlaridagi topshiriqlar o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini turli darajalarda baholashga yo‘naltiriladi. Bunda oddiy ma’lumotni eslab

qolish va qayta tiklashdan boshlab, g‘oyalarni tushunish, strategik fikrlash, tahlil qilish va kengaytirilgan fikrlashgacha bo‘lgan jarayonlar qamrab olinadi.

Mazkur yondashuv o‘quvchining bilimni tayyor shaklda qaytarish qobiliyatidan ko‘ra, undan foydalanish imkoniyatini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ochiq turdagi savollar, muammoli vaziyatlar, matnni davom ettirish, muqobil yechim taklif qilish yoki o‘z fikrini asoslashga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining o‘rnini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik kuzatuvga asoslangan yondashuvlardan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, ularning ta’lim jarayonidagi vazifalari hamda o‘quvchilarda shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Shuningdek, xalqaro baholash topshiriqlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishdagi imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmetini esa xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS talablari asosida shakllantiriladigan topshiriqlar, ularning mazmuni, kognitiv murakkablik darajasi hamda ta’lim jarayonidagi metodik imkoniyatlari tashkil etdi. Tadqiqot davomida xalqaro baholash dasturlarida qo‘llaniladigan topshiriqlarning o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi, ularning fikrlash faoliyatini faollashtirishi va o‘quv materialini amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkoniyatlari ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida xalqaro baholash dasturlariga xos topshiriqlarning mazmuni va ularning o‘quvchilarda shakllantirishi mumkin bo‘lgan kompetensiyalar tizimli ravishda o‘rganildi. Xususan, matn mazmunini tushunish, kerakli axborotni topish va ajratib olish, turli ma’lumotlarni taqqoslash, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish, o‘z fikrini dalillar asosida asoslash hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim taklif qilish kabi ko‘nikmalarga e’tibor qaratildi. Bunda o‘quvchining faqat tayyor ma’lumotni eslab qolishi emas, balki o‘zlashtirilgan bilimlardan yangi va notanish vaziyatlarda foydalana olishi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraldi.

Shuningdek, xalqaro baholash topshiriqlarining kognitiv murakkablik darajalari ham tahlil qilindi. Oddiy ma’lumotni aniqlash va qayta tiklashdan boshlab, ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, strategik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonlar o‘rganildi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ularda yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Ayniqsa, ochiq turdagi savollar, muammoli vaziyatlar va bir nechta maqbul

javobga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati hisobga olindi.

Tadqiqotda xalqaro baholash mezonlarini milliy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ham o‘rganildi. Bunda xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uning samarali jihatlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, milliy ta’lim mazmuni, o‘quv dasturlari hamda mavjud pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirish tamoyiliga tayanildi. Shu asosda xalqaro baholash dasturlarining metodik imkoniyatlarini milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash masalalariga e’tibor qaratildi.

Metodologik yondashuvning yana bir muhim jihati xalqaro baholash topshiriqlarini faqat nazorat va baholash vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida ko‘rib chiqishdan iborat bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, PIRLS mazmunidagi topshiriqlarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tahlil qilish, fikr yuritish, dalillash va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Umuman, tanlangan metodologik yondashuvlar xalqaro baholash dasturlarining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rnini kompleks tarzda tahlil qilish, ularning o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy jihatlarini aniqlash hamda xalqaro mezonlarni milliy ta’lim amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishning metodik asoslarini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari talablariga mos topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida faqat undagi tayyor ma’lumotni topish bilan cheklanmasligi kerak. U matn mazmunini anglash, muallifning asosiy fikrini aniqlash, turli ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash, sabab va oqibatlarni aniqlash, matn asosida xulosa chiqarish va o‘z nuqtayi nazarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

PIRLS dasturining mazmuni ana shu kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Xalqaro baholash topshiriqlarida adabiy va axborot matnlaridan foydalanish, shuningdek, grafik va jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni tahlil qilish o‘quvchining turli axborot manbalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda ochiq turdagi topshiriqlarning o‘rni ayniqsa muhim. Masalan, o‘quvchiga matndagi qahramon o‘rnida o‘zini tasavvur qilish, muayyan vaziyatda qanday yo‘l tutishini izohlash, voqealar rivojini davom ettirish,

matnga yangi sarlavha tanlash yoki matnning boshqa yakunini taklif qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Bunday vazifalar o‘quvchidan mavjud bilimlarni qayta takrorlashni emas, balki o‘z tajribasi, tasavvuri va mantiqiy fikrlash imkoniyatlaridan foydalanishni talab qiladi. Natijada o‘quvchining ijodiy yondashuvi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Xalqaro baholash topshiriqlarini kognitiv murakkabligiga ko‘ra quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

Birinchi daraja — eslab qolish va qayta tiklash. O‘quvchi matnda berilgan aniq ma’lumotni topadi va qayta ifodalaydi.

Ikkinchi daraja — tushunish va qo‘llash. O‘quvchi matndagi g‘oya va ma’lumotlarni o‘zaro bog‘laydi hamda ularni berilgan vaziyatda qo‘llaydi.

Uchinchi daraja — strategik fikrlash. O‘quvchi ma’lumotlarni taqqoslaydi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi va dalillar asosida xulosa chiqaradi.

To‘rtinchi daraja — kengaytirilgan fikrlash. O‘quvchi mavjud ma’lumotlar asosida mustaqil fikr yuritadi, yangi g‘oya ilgari suradi, muqobil yechimlarni taklif qiladi va o‘z qarashlarini asoslaydi.

Bunday tizim o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini oddiydan murakkabga qarab rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot materiallarida ham xalqaro baholash topshiriqlarining mazmuni o‘quvchini yuzaki o‘qishdan ko‘ra mushohada qilish, voqealarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va mustaqil xulosa chiqarishga undashi qayd etilgan.

Boshlang‘ich ta’limda bunday topshiriqlarni ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari bilan bir qatorda tabiiy fanlar va boshqa o‘quv fanlariga ham integratsiya qilish mumkin. Masalan, tabiiy fanlarda berilgan axborot matni asosida o‘quvchi jadval yoki grafikni tahlil qilishi, ma’lumotlarni taqqoslashi va muayyan hodisa yuzasidan xulosa chiqarishi mumkin. Bu jarayonda o‘qish savodxonligi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Xalqaro baholash dasturlarining yana bir muhim jihati — ta’lim jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash imkoniyatidir. Baholash natijalari orqali o‘quvchilarning qaysi kompetensiyalari yaxshi shakllangani, qaysi yo‘nalishlarda esa qo‘shimcha pedagogik yordam zarurligini aniqlash mumkin. Shu asosda o‘quv dasturlari, metodik materiallar va dars jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tegishli choralar belgilanadi.

Bunda o‘qituvchining roli ham muhimdir. O‘qituvchi xalqaro baholash topshiriqlaridan faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quvchini rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida foydalanishi lozim. Dars jarayonida o‘quvchilarga «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Boshqa qanday yechim bo‘lishi mumkin?», «Agar vaziyat o‘zgarsa, nima sodir bo‘ladi?» kabi savollarni berish ularni yuqori darajadagi fikrlashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayib borishi ta’lim jarayoniga ham yangi imkoniyatlar olib

kirmoqda. Elektron topshiriqlar, onlayn so‘rovnomalar va raqamli baholash vositalari orqali o‘quvchilarning natijalarini tezkor yig‘ish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot materiallarida PIRLS tadqiqotlari doirasida elektron shakldagi topshiriqlar va so‘rovnomalardan foydalanish imkoniyatlari ham qayd etilgan.

Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda milliy ta’lim xususiyatlarini hisobga olish muhim. Xorijiy tajribani aynan takrorlash o‘rniga uning samarali jihatlarini milliy o‘quv dasturlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va mahalliy pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’lim sifatini aniqlash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro mezonlar asosida baholash bilan bir qatorda, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham muhim imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda PIRLS dasturi mazmuni va talablariga mos topshiriqlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning o‘qish va o‘qib tushunish savodxonligini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish hamda o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday topshiriqlar o‘quvchini tayyor ma’lumotni o‘zlashtirishdan ko‘ra, o‘qiganlarini anglash, ular ustida fikr yuritish va turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida PIRLS talablariga mos topshiriqlardan muntazam foydalanish, o‘quvchilarning o‘qib tushunish kompetensiyalarini izchil rivojlantirish hamda oddiy, reproduktiv topshiriqlar bilan bir qatorda tahliliy, muammoli va ijodiy vazifalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘quvchilarni matn bilan bir qatorda grafik, jadval va boshqa axborot manbalari asosida ishlashga o‘rgatish, o‘z fikrini mustaqil shakllantirish va uni dalillar bilan asoslashga yo‘naltirish zarur. Xalqaro baholash natijalarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda uchrayotgan qiyinchiliklarni aniqlash, shunga mos ravishda o‘qitish usullarini takomillashtirish va pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati ham kengayadi. Bunda xalqaro tajribadan foydalanish milliy ta’lim mazmuni va mavjud pedagogik tajriba bilan uyg‘un holda olib borilishi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

Umuman olganda, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishning ahamiyati faqat o‘quvchilarning baholash natijalarini yaxshilash bilangina cheklanmaydi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, axborotni tahlil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim topishga intiladigan, yangicha fikr bildira oladigan va o‘z qarashlarini asoslay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlaridan oqilona foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning zarur kompetensiyalarini rivojlantirish va milliy ta’lim tizimini

zamonaviy xalqaro ta'lim tendensiyalari bilan uyg'unlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — 2018. — [Elektron manba]. https://lex.uz/docs/4097073
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — 2022.
4. Boltaeva, Sh. T. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish // Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari: ilmiy ishlar to'plami. — Toshkent: Fan, 2006. — B. 142–144.
5. Hamroyev, A. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalash: pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. — Toshkent, 2020.
6. Urakov, Sh. R., Fayzullayeva, G. Sh. Ta'limda innovatsion yondashuvlar (malaka oshirish kurslari misolida): uslubiy qo'llanma. — Samarqand: SamDU nashriyoti.
7. Turdibayev, D. X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Nukus, 2024.
8. Abdullayeva, Sh. A., Ergasheva, M. T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2023.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694